Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
<i>Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё</i>	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi .....	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления .....	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida .....	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar .....	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education .....	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari .....	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati .....	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari .....	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues .....	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar .....	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari .....	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении .....	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
<b>Д. Б. Бабаева</b>	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике .....	750
<b>Шарипов Одилжлон Гуломжон угли</b>	
Iqtidorli talabalarni aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....	754
<b>Abdiyeva E'zoza Beknazar qizi</b>	
Innovatsion menejment tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari .....	759
<b>Hikmatova Niginabonu Siddiq qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni anonim baholash tizimining ishonchligi va pedagogik samaradorligini baholash.....	764
<b>Maksudova Aziza Ikramdjanovna, Akramxo'jayev Yo'ldoshxo'ja Tursunxo'jayevich, Avezov Toshtemir Abdualiyevich, Abdullayeva Maftuna Shonazarovna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida mexanikani o'qitishning pedagogik muammolari.....	771
<b>Choriyev Islom G'ayratovich</b>	
Musiqqa mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	775
<b>Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna, Bahora Akbarova</b>	
Moychechak yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ta'siri .....	778
<b>Jabbarova Nigina Zoxidjon qizi</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida bo'lg'usi matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish .....	783
<b>Esonov Munavvarjon Mukimjonovich, Xabibullayev Islomjon Soyibjon o'g'li</b>	
Специфика формирования математического мышления студентов вузов посредством модуля "векторы" .....	786
<b>Эсонов Мунавваржон Муқимжонович, Салихов Амир Тимурович</b>	
Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining nazariy-metodologik asoslari..	790
<b>Rayimova Gulchehra Utkur qizi</b>	
Особенности использования инструментов управления проектами: отраслевой подход.....	794
<b>Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etishda qiyinchiliklar va samarali strategiyalar.....	800
<b>Abdalimova Iroda Ummatqul qizi</b>	
Manzara janrining tasviriy san'atdagi o'rni: ekologik-estetik mazmuni va ta'limiy imkoniyatlari .....	805
<b>Abdumajidova O'g'loy Ravshanjon qizi</b>	
E-Assessment vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va funksional imkoniyatlari.....	809
<b>Abdumannopov Murodjon Ilxomjon o'g'li</b>	
Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirishning interfaol metodlari.....	813
<b>Abduvaxobov Shohruhbek Ikromjon o'g'li</b>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar .....	816
<b>Davlatova Furuza Kamolovna</b>	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim va zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish .....	820
<b>Hayitov Abdurasul Eshdaviatovich, Xolboyeva Nigina Uchqunovna, Ravshanov Asliddin Ulug'bek o'g'li</b>	
Sport gimnastikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik va amaliy jihatlari.....	826
<b>Karimov Doniyor Komil o'g'li</b>	
Neyropsixologiya va neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi .....	830
<b>N. O. Saidova</b>	
Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishining nazariy asoslari.....	833
<b>Nosirova Shoxsanam Negmat qizi</b>	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....	837
<b>Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</b>	
O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.....	841
<b>Tulaganov Jahongir Abdimurot o'g'li</b>	



Vizual ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini diagrammaviy masalalar yordamida rivojlantirish .....	845
<i>Usmonova Shahlo Saidjon qizi</i>	
Biologiya darslarida o'quvchilarning ilmiy xabardorlik kompetensiyasini shakllantirishda mashq va masalalardan foydalanish metodikasi .....	849
<i>Yakubova Fotima Xamza qizi</i>	
Система духовных ценностей в современной русской прозе (а. волос "сирийские розы") .....	853
<i>Ольга Чангировна Хегай</i>	
Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning pedagogik-psixologik tasnifi .....	856
<i>Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi</i>	
Rang nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar va paremiyalarda milliy-madaniy xususiyatlar .....	858
<i>Azizova Zarina Alixanovna</i>	
Kvest o'yinlari orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....	861
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Davronova Ra'no Komilovna</i>	
Dizayn o'ylash jarayonini bolalar bilan mashg'ulotda qo'llashning metodik yondashuvlari .....	865
<i>Hasanova Sevinchoy Ramazon qizi</i>	
Umumta'lim maktablari fizika ta'limida mexanika bo'limini izchillik yondashuvi asosida o'qitish zaruriyatining ilmiy asoslari .....	869
<i>Yusupov Dilmurud Abdurashidovich, Azimova Shahnoza Akramjon qizi</i>	
STEAM va ijodiy metodlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarni tayyorlash: triz, montessori va mnemotexnikani integratsiyalash .....	873
<i>Abdumajitova Sayyohat Abduqosimovna</i>	
O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodikasini tadqiq etish modeli .....	877
<i>Usmanova Sabohat Erkinovna</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik mohiyati .....	880
<i>Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna</i>	
Shaxs psixik rivojlanishida sog'lom turmush tarzi va atrof-muhit ta'sirining ahamiyati .....	884
<i>B. Raximov</i>	
Boshlang'ich ta'limda STEAM integratsiyasi: tajribalar va innovatsion yondashuvlar .....	887
<i>Bozorov Nurbek Alisher o'g'li, Muxtarova Lobar Abdimannabovna</i>	
Ona tili darslarida o'qish savodxonligini oshirishda matn bilan ishlash .....	890
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslari .....	894
<i>Murotova Gulnoza Saidqulovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni rivojlantirish .....	897
<i>Muxtarova Lobar Abdimannabovna</i>	
Tabiiy fanlarni o'rgatishda kompleks yondashuv .....	900
<i>Qodirxonova Gulnozaxon Odilxon qizi, Zokirov Furqat Mansurovich</i>	
Современные подходы к формированию содержания общего среднего образования на основе зарубежного опыта .....	902
<i>Хакимова Дилдора Машрабжоновна</i>	

# ONA TILI DARSLARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MATN BILAN ISHLASH

**Erdanova Zamira Olimovna**

Termiz davlat pedagogika instituti  
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili darslarida o'qish savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlashning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Unda matnni idrok etish, tahlil qilish va mazmunan qayta ishlash jarayonlari orqali o'quvchilarning o'qish, tushunish va fikrni og'zaki hamda yozma shaklda ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil etiladi. Shuningdek, dars jarayonida badiiy, ilmiy-ommabop va axborot matnlaridan foydalanishning samarali usullari ko'rsatib beriladi. Maqolada interfaol topshiriqlar, savol-javoblar va ijodiy yondashuvlar asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda tanqidiy o'qish kompetensiyasini oshirish yo'llari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ona tili darslarida matn bilan ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'limi, o'qish savodxonligi, matn bilan ishlash, matn tahlili, o'qib tushunish, nutqiy kompetensiya, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, ta'lim samaradorligi.

**Abstract:** This article highlights the methodological possibilities of working with texts in developing reading literacy in mother tongue lessons. It analyzes the formation of students' skills in reading, comprehension, and expressing ideas both orally and in written form through the processes of text perception, analysis, and semantic processing. The article also presents effective methods for using literary, popular science, and informational texts in the classroom. Furthermore, it substantiates ways to enhance students' independent thinking and critical reading competence through interactive tasks, question-answer activities, and creative approaches. The research results contribute to improving the effectiveness of working with texts in mother tongue lessons.

**Key words:** mother tongue education, reading literacy, working with texts, text analysis, reading comprehension, speech competence, critical thinking, interactive methods, creative tasks, educational effectiveness.

**Аннотация:** В данной статье освещаются методические возможности работы с текстом при развитии читательской грамотности на уроках родного языка. Рассматриваются вопросы формирования у учащихся навыков чтения, понимания и выражения мыслей в устной и письменной форме посредством процессов восприятия, анализа и смысловой переработки текста. Также показаны эффективные способы использования художественных, научно-популярных и информационных текстов в учебном процессе. В статье обоснованы пути развития самостоятельного мышления и компетенции критического чтения у учащихся на основе интерактивных заданий, вопросов-ответов и творческих подходов. Результаты исследования способствуют повышению эффективности работы с текстом на уроках родного языка.

**Ключевые слова:** обучение родному языку, читательская грамотность, работа с текстом, анализ текста, понимание прочитанного, речевая компетенция, критическое мышление, интерактивные методы, творческие задания, эффективность обучения.

## KIRISH

Jahonning rivojlangan mamlakatlari o'qitish tizimida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarida o'qish savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlash, o'quv materiallarini og'zaki va yozma nutqni shakllantirishning produktivlik darajasini kengaytirish orqali tizimlashtirish, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning lingvomadaniy asoslarini takomillashtirish alohida dolzarflik kasb etadi. Ayniqsa, ona tili darslarida o'qish savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlash orqali o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratiladi.

Ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishdan iboratdir. O'qish savodxonligi shaxsning nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki uning jamiyatda faol ishtirok etishi, axborotni to'g'ri qabul qilishi va tahlil qila olishini ta'minlovchi asosiy kompetensi-



yalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslari o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda yetakchi o'rin tutadi. Chunki ona tili fanida matn bilan ishlash, mazmuni anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonlari tizimli ravishda amalga oshiriladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ona tili darslarida o'qish savodxonligini oshirishda matn bilan ishlash masalalari zamonaviy pedagogika tadqiqotlarida muhim o'rin egallaydi.

Xususan, Respublikamiz olimlaridan Q.Abdullayeva, K.Qosimova, A.G'ulomov, M.Asqarova, S.Matchonov, R.Safarova, M.Yusupov, T.Ziyadova, X.G'ulomova, A.Hamroyev, N.Qosimova, Q.Shodiyeva, D.R.Babayeva, M.Z.Hamdama, N.Bekniyozova, D.Toshxo'jayeva, Sh.Nurullayeva, F.O'rinova, A.Nisanbayeva, U.Masharipova, X.Bakiyeva, Sh.Sariyevlar matn ustida ishlash, lug'at ustidagi ishlar, yozma ishlarni tashkil etish, nutq o'stirishga doir ijodiy va mantiqiy mashqlarni o'tkazish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish madaniyatini shakllantirish, R.X. Lutfetdinova produktiv o'qish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan T.Ramzaeva, D.Garipova, Z.Klychnikova, T.Polyakovalar o'quvchilarning o'qish madaniyatini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini yoritib berishgan.

Xorijlik Dell Xayms, Noam Chomskiy, Sue Croome, Jim Rose, E.C.Wenger kabi olimlarning tadqiqot ishlarida kommunikatsiya jarayonlarining kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilish jarayonlariga ta'siri masalalari o'rganilgan.

Biz ham o'z tadqiqotlarimizda o'qish jarayonida matnni chuqur anglash, tahlil qilish hamda refleksiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarning akademik yutuqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan o'rganishni o'z oldimizga vazifa qilib belgiladik.

Shuningdek, matn mazmunini tushunishda tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni vizual tarzda ifodalash o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, loyiha asosida o'qitish jarayonida matn bilan ishlash, axborotni izlash va tahlil qilish faoliyatlari o'quvchilarning mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning matnni idrok etishi va chuqur anglash jarayonlarini tadqiq etish "o'qish – tushunish – tajriba asosida o'rganish" tamoyili asosida o'quvchilarning bilimni faol qayta ishlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va o'qilgan matn mazmunini amaliy faoliyat bilan bog'lash muhimligi alohida qayd etmoqchimiz.

Shu bilan birga, tadqiqot ishida matn bilan ishlash jarayonida interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar hamda tanqidiy o'qish strategiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Bu esa ona tili darslarida matn bilan ishlashni tizimli va metodik jihatdan takomillash-tirish zarurligini ko'rsatadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ona tili fanining asosiy maqsadi o'quvchilarga grammatik bilimlarni berish bilangina cheklanmay, balki ularning nutqiy kompetensiyasini, mustaqil fikrlashini, o'qib tushunish va o'z fikrini aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu jihatdan qaraganda, o'qish savodxonligini oshirish masalasi ona tili ta'limining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarblilik kasb etmoqda. O'quvchilar matnni faqat o'qib chiqish bilan cheklanib qolmasdan, uning mazmunini chuqur anglab, muallif fikrini tahlil qila olishi, matnga nisbatan munosabat bildira olishi muhim ahamiyatga ega. Xalqaro ta'lim tadqiqotlari, jumladan, PISA, PIRLS kabi baholash dasturlari natijalari ham o'qish savodxonligining ta'lim sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri ekanini ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqotlarda o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalari, ya'ni axborotni topish, talqin qilish, baholash va undan foydalanish qobiliyatlari asosiy mezon sifatida baholanadi. Bu esa ona tili darslarida matn bilan ishlash texnologiyalarini takomillash-tirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ona tili darslarida matn bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning til birliklarini amaliy qo'llash, lug'at boyligini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish hamda og'zaki va yozma nutqini takomillashtirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda matn ustida ishlash faqat savollarga javob topish yoki qayta hikoyalash bilan chegaralanib qolmoqda. Bu esa o'quvchilarda chuqur tahliliy o'qish, tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Shu sababli, ona tili darslarida matn bilan ishlashni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, matnni o'qishdan oldingi tayyorgarlik bosqichi, o'qish jarayonida beriladigan muammoli savollar va o'qishdan keyingi tahliliy topshiriqlar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash mumkin. Bunday yondashuvlar o'qish savodxonligini oshirish bilan bir qatorda, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini ham kuchaytiradi.

Matn bilan ishlash jarayonida turli tipdagi matnlardan – badiiy, ilmiy-ommabop, axborot va publitsistik matnlardan foydalanish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi hamda ularni real hayotdagi axborotlarni tahlil qilishga tayyorlaydi. Ayniqsa, hayotiy vaziyatlarga asoslangan matnlar orqali o'quvchilar o'qilgan ma'lumotni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini hosil qiladilar. Bu esa o'qish savodxonligining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi shaxsning intellektual, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'qish savodxonligi tushunchasi faqat matnni texnik jihatdan o'qish emas, balki uni mazmunan anglash, tahlil qilish, baholash va o'qilgan axborotni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu bois o'qish savodxonligi o'quvchining umumiy ta'limiy tayyorgarligini belgilovchi asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Ona tili darslari o'qish savodxonligini shakllantirish uchun eng muhim fanlardan biri sanaladi. Chunki aynan ona tili darslarida o'quvchilar matn bilan muntazam ishlaydi, til birliklarini amaliy jihatdan o'zlashtiradi va fikrni ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar so'z boyligini kengaytiradi, gap va matn tuzilishini anglaydi, fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni tushunishga o'rganadi. Shu jihatdan qaraganda, ona tili darslarida matn bilan ishlash o'qish savodxonligini rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Matn bilan ishlash ona tili darslarining markaziy komponenti bo'lib, u nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni ham bajaradi. O'quvchilar badiiy, ilmiy va axborot matnlari orqali jamiyat hayoti, milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va madaniy meros bilan tanishadilar. Bu esa ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning tafakkuri rivojlanadi, diqqat va xotira faollashadi.

O'quvchilar matn mazmunini tushunish jarayonida mantiqiy fikrlashga, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga va xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ayniqsa, murakkab mazmunga ega matnlarni tahlil qilish o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, matn bilan ishlash o'quvchilarning nutqiy faoliyatini ham faollashtiradi. O'qilgan matn asosida fikr bildirish, savollarga javob berish, bahs-munozaralarda ishtirok etish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqi rivojlanadi. Yozma topshiriqlar esa ularning yozma nutqini takomillashtiradi. Bu jarayonlarning barchasi o'qish savodxonligini izchil ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida matn bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun bosqichli yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning matnni ongli idrok etishini ta'minlaydi va o'qish savodxonligini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qishdan oldingi bosqichda o'quvchilar matn mavzusi bilan tanishtiriladi, sarlavha asosida taxminlar qilinadi va asosiy tushunchalar aniqlanadi. Bu bosqichda yangi so'zlar izohlanadi, muammoli savollar beriladi. Natijada o'quvchilarda matnga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi va ular o'qishga tayyorlanadi.

O'qish jarayonida matn mazmuni izchil o'rganiladi. O'quvchilar asosiy fikrlarni aniqlaydi, muhim va ikkinchi darajali ma'lumotlarni farqlaydi. Bu bosqichda savol-javoblar, belgilar qo'yish va qisqa izohlar berish orqali ongli o'qish ta'minlanadi. O'qishdan keyingi bosqichda esa o'quvchilar matn asosida xulosa chiqaradi, o'z fikrlarini bildiradi va ijodiy topshiriqlarni bajaradi. Ushbu bosqich o'qilgan matnni mustahkamlash va chuqur anglashga xizmat qiladi.

O'qish savodxonligini oshirishda matn janrining ahamiyati katta. Badiiy matnlar o'quvchilarning obrazli fikrlashini rivojlantiradi, ularni estetik idrokka o'rgatadi. Bunday matnlar orqali o'quvchilar voqealar ketma-ketligini tushunadi, qahramonlar xarakterini tahlil qiladi va muallif g'oyasini anglaydi. Ilmiy-ommabop matnlar esa o'quvchilarda tushunchalar bilan ishlash, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Axborot va publitsistik matnlar real hayotiy vaziyatlarga mos bo'lib, o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Turli janrdagi matnlar bilan ishlash o'quvchilarning o'qish savodxonligini har tomonlama rivojlantirishga imkon yaratadi.

Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning matn bilan ishlash jarayonidagi faolligini oshiradi. Matnni davom ettirish, muqobil yakun yozish, sarlavha tanlash yoki matn asosida insho yozish kabi topshiriqlar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilar matnni qayta ishlashga, asosiy fikrni yangi shaklda ifodalashga o'rganadilar. Bu esa o'qish savodxonligini mustahkamlash bilan birga ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

## XULOSA

Ona tili darslarida o'qish savodxonligini oshirish masalasi bugungi ta'lim tizimida dolzarb muammo hisoblanadi. Tadqiqot va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalari to'g'ri shakllantirilmasa, ularning o'qish savodxonligi yetarli darajada rivojlanmaydi. Shu nuqtai nazardan, ona tili



daralarida matn bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning tafakkurini, mantiqiy fikrlashini, ijodiy va tanqidiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Maqolada ta'kidlanganidek, o'qish savodxonligi nafaqat texnik o'qish va tushunish, balki o'qilgan matndan asosiy g'oyani ajratish, ikkinchi darajali ma'lumotni farqlash, xulosa chiqarish va matn mazmunini turli kontekstlarda qo'llash qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, matn bilan ishlash o'quvchilarning nutqiy va yozma faoliyatini, muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar matnni anglash orqali o'z fikrini aniq va ravon ifodalashga, argumentlar bilan dalillashga o'rganadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tajibaeva, G. O'qitish metodikasida zamonaviy yondashuvlar - Samarqand: Sharq. 2019.
2. Rahmatov, F. Ona tili daralarida matn ustida ishlash metodlari - Toshkent: Narxoz. 2020.
3. Abdullaeva, S. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar - Toshkent: 2018.
4. Erdanova Z.O. Illumination of the problem of using the pedagogical approaches of alhakim attermizi in the higher education system. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 1317. (2023).
5. Erdanova Z.O. Reflective in future primary class teachers culture development processes improvement *International Journal of Pedagogics*. Volume 04ISSUE04 PAGES:8790, 2024yil. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue0416>
6. Olimovna, E. Z., & Durdona, N. M. (2025, January). Ona tilini o'qitishda matn ustida ishlash metodikasi mazmunini takomillashtirish. In international conference on modern development of pedagogy and linguistics (Vol. 2, No. 1, pp. 26-31).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.